

Matn Va Hajviy Matn Tushunchasining Mohiyati

Usmonov Aslam Karshiboyevich¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida matnning turli jihatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilingan. Jumladan, A.G'ulomov, M.Asqarova, I.Rasulov, A.Mamajonov, M.To'xsonov, N.Turniyozov, M.Xakimov, E.Qilichev, M.Abdupattoyev, M.Yo'ldoshev, M.Qurbonova, S.Maxsumova, H.Turdiyeva kabi olimlar matnning semantik, grammatik, stilistik va pragmatik xususiyatlari borasida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ularning izlanishlarida asosan badiiy matn tadqiqot obyekti sifatida qaralgan. Badiiy matnlarning semantik tuzilishi, grammatik qurilishi, stilistik xususiyatlari va pragmatik maqsadlari muhim tadqiqot yo'nalishlari bo'lib kelgan. O'zbek tilshunosligida hajviy matn alohida til hodisasi sifatida asosan XX asrning ikkinchi yarmiga kelib ilmiy izlanishlar markaziga aylangan. Ushbu matn turi 2000-yillar davomida stilistik jihatdan tadqiq etilgan bo'lsa-da, hali ham tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari asosida chuqur o'rganishga ehtiyoj sezilmoqda. Hajviy matnning o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini, ularning tuzilishi, uslubi hamda kommunikativ vazifalarini keng qamrovda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada hajviy matnlarning o'ziga xos lingvistik xususiyatlari, ularning semantik-pragmatik jihatlarini hamda kommunikativ funksiyalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu matn turining bugungi tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyati, uning o'rganilish istiqbollari haqida ham fikr yuritiladi. Hajviy matnlarning tahlili ularning jamiyatdagi o'rni va ta'sirini tushunishga ham xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot orqali hajviy matnlarning o'zbek tilshunosligidagi mavqei kengaytirilishi va zamonaviy tilshunoslik metodlari asosida tahlil qilinishi maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: Yumor, stilistika, kulgi, hajviy matn, til birliklari, pragmatika, ma'no, munosabat, feleton.

Kirish

Butun dunyoda ilmiy g'oyalarning yaxlitlanishi natijasida turli ilmiy sohalar chegarasida yangi yo'nalishlar paydo bo'lib, shakllanib bormoqda. Shu ma'noda matn tilshunosligi yo'nalishi ham o'zining bir qator rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. Bu sohada matn lingvistik tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etilmoqda. Tilshunoslikda "matn" terminining universal qabul qilingan ta'rifi ishlab chiqilmagan, chunki matnning umumiy va xususiy belgilarini ajratib ko'rsatish masalalari haligacha to'liq hal etilgan, deb bo'lmaydi. "Matn" tushunchasiga bo'lgan turli xil qarashlar va yondashuvlarni aks ettiruvchi o'nlab ta'riflar mavjud. Avvalo, lug'atlarda keltirilgan ta'riflarni ko'rib chiqamiz. 1955-yilda Moskvada nashr etilgan "Словарь иностранных слов"da "tekst" so'zi quyidagicha ta'riflanadi: Tekst (lotincha "textum"– mato, to'qish, birlashtirish)– asosiy xususiyatlari aloqadorlik va yaxlitlik bo'lgan til birliklarining o'zaro birikishi, mantiqiy ketma-ketligi; "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da "matn" atamasiga "yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi, tekst" sifatida ta'rif beriladi. Matnning bu xususiyatlarini hisobga olib, ba'zi tekshiruvchilar uni lingvistikaning mustaqil bir sohasi sifatida (tekst grammatikasi, tekst lingvistikasi kabi nomlar bilan) ajratishni zarur deb biladilar. Ba'zilar esa uni tekst sintaksisi deb atab (so'z birikmasi sintaksisi, sodda gap sintaksisi kabi), gap sintaksisining davomi sifatida qarab, bu bilan sintaksis terminining mazmunini kengaytirishni, asosiy sintaktik birlik sifatida gapdan ko'ra katta sintaktik butunlik deb qarash kerakligini ta'kidlaydilar: bunda sintaksisning yuqori chegarasi qo'shma gap sintaksisi emas, balki tekst sintaksisi bo'ladi. Tekshiruvchilarning ko'pchiligi bu sohani birinchi qarash bo'yicha yoritmoqdalar. Ko'rinib turganiday, A.G'ulomov o'zbek tili faktlaridan kelib chiqqan va dunyo tilshunosligidagi turli qarashlarni inobatga olgan holda matnning tabiati va mohiyatini aniq ko'rsatib

¹ f.f.f.d. (PhD), Qodiriy nomli Jizzax DPU o'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti v.b.



bergan. Matn muammolari bilan jiddiy shug'ullangan o'zbek tilshunoslaridan yana biri M.Hakimov hisoblanadi. U asosiy maqsadi "ilmiy matn va uning birliklari orasidagi mazmuniy munosabatlarni ifoda etuvchi bog'lovchilar, ularning o'ziga xos xususiyatlari va o'ziga xos vazifalarini aniqlashga yo'naltirilgan ishlarga hissa qo'shish, ilmiy matnda muallifning xususiy munosabati hamda uning turlarini belgilash" dan iborat bo'lgan nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini boy faktik materiallar asosida batafsil tadqiq etgan. O'tgan asrning 90-yillari matn tilshunosligining nazariy muammolariga bag'shlangan ishlardan B.O'rinboyev, R.Qo'ng'urov, J.Lapasovlarning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" nomli o'quv qo'llanmasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya

Matn muammolari bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan A.Mamajonov va M.Abdupattoyevlar ham matn tarkibidagi bog'lanishlilikka grammatik va mazmuniy umumiylikka ko'ra uzvlarni birikuviga alohida urg'u beradilar: "matn sintaksisning tekshiruv obyekti. Sintaktik hodisa sifatida matn maxsus leksik-grammatik va umumiy mazmun talabi bilan birikkan birdan ortiq mustaqil gap turlarining yig'indisidan iborat. Matn o'ziga xos murakkab sintaktik strukturaga ega bo'lgan nutqning yirik ifodasidir", – degan fikrlarini bildirib o'tadilar. Ana shu mulohazalardan kelib chiqib, tilshunos olim M.Yo'ldoshevning quyidagi fikrlariga e'tibor qaratishni lozim topdik. Olim "matnni gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki yoki yozma shaklda yuzaga keladigan struktur mazmuniy va kommunikativ yaxlitligi tarzidagi butunlik sifatida til sintaktik satxining oliy darajadagi birligi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq" degan fikrni ilgari suradi va matn haqidagi haqli g'oyani isbotlab bergan edi. "Yumor" (*hajv*) termini asli lotincha "suyuqlik" ma'nosini anglatuvchi "umor" so'zidan kelib chiqqan va tibbiyot termini sifatida qo'llangan. Bu termin bizgacha yetib kelgan, ammo o'zining asl ma'nosini mutloq yo'qotgan. Hajviy matnlar borasida tadqiqot olib borishda "hajv" tushunchasining mohiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da hajvga quyidagicha ta'rif berilgan: "ayrim shaxs yoki ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni kulgi ostiga olib, masxaralab aytilgan (yozilgan) gap, jumla, bayt, asar". Kulgi qo'zg'atuvchi matnlarning o'rganilishi jahon olimlaridan Zigfrid Krakauer o'zinig "Film nazariyasi: Filmlardagi nutq" ilmiy maqolasida kinoda komediya rolini o'rganib chiqan. Helmut Schanze esa "Hobbinig komediya shakli: Inson ilmining yagona tarixi" – Schanze komediya va ilmiy kashfiyot o'rtasidagi bog'liqlik borasida tadqiqodtlar olib bordi, yana bir olim Verner Follstix "Film va komediya: Chaplinning "Adashgan" romanidan "Spagetti hidlovchisigacha", Follstich Charli Chaplinning "Assob" filmidan ko'proq zamonaviy komediyalargacha kinoda komediyaning rivojlanishini o'rgandi.

Natija

Qadimdan o'zbek xalqi odatda ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni kulgi ostiga olishadi. Tilshunoslikda yumor haqida bir nechta qarashlar bor: "biror shaxsni kuldirish yoki tabassum hadya etish jarayoni", "hajv jamiyatda tez-tez uchraydigan hodisa va inson ta'sirining juda muhim qismi hisoblanadi", "hajv ta'sir kuchiga ega, u siyosiy satirada hazil orqali do'stlik o'rnatish va boshqa munosabatlarni saqlash yo'li sifatida foydalaniladi". Keltirilgan fikrlarga asoslanadigan bo'lsak hajv ijtimoiy mohiyatga ega. Hajv kishilik jamiyatidan tashqarida paydo bo'lishi, yashashi mumkin emas. U xalq ichida, omma orasida vujudga keladi, aniq maqsadga yo'naltirilgan, ma'lum vazifani bajarishga qaratilgan bo'ladi. Haqiqiy hajviya inson uchun, jamiyat uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham uning ijtimoiy mohiyatisiz, xalqdagi rolisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zbek mumtoz adabiyotda hajviyotga ancha past nazar bilan qaralgan. Chunki hajviyot bilan shug'ullanish adabiyotni oddiy hayotga, odamlarning tirikchiliklariga yaqinlashtirardi, ilohiy muhabbat o'rniga turmushning kir va jo'n hodisalarini qalamga olishni talab etadi. Shu sababdan mumtoz adabiyotda ijod qilgan adiblar, xususan, Muqimiy ijodida jamiyat va shaxslar hayotidagi illatlarni inkor etish, ularni kulgiga olish, hajviy tanqid qilish, xullas, faol ijtimoiy munosabat yetakchilik qiladi. Masalan:

Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,

Arz etayin emdi yozib nomalar,

Adl qulog'ila eshit holimi



Zulm qilur, baski, menga zolimi,
O'n ikki oyda keladur bir tanob,
O'zgalara rohat-u menga azob.
Birlari mo'ltoninamo, hiylagar,
Birlaridur kunda pix-u gavda xar.
Og'izlari maqtanib o'n besh qarish,
Mayda suxan, ezma (churuk), zanchalish.
Qaysiki qishloqqa tushar otidin,
Elni yig'ib, voqif etar zotidin.

(Hamza)

D.Long va A.Gresserlar hajv "Hajv hayotning va badiiy ta'sirchanlikning nomuvofiqliklarini turli ko'rinishlari sifatida izohlanadi. Hajv hissiyot emas, ammo hayotiy hodisa. U insoniyatning eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, biror tilning ajralmas qismidir", deya ta'rif beradilar. Hajviy matn turlari va ularning turli lug'at va manbalardagi izohlari o'rganib chiqiladi. Hajviy matnlar tarkibiga kiruvchi "komediya–voqealar, harakatlar va ziddiyatlar kulgi asosida tasvirlanadigan sahna asari hisoblanadi. Mazkur matn "dramatik asarning bir turi bo'lib, unda hayotdagi kulgili hodisalar tasvir etiladi, ijtimoiy yoki oilaviy mojarolar, kishilar xarakteridagi bema'ni, kulgili xususiyatlar masxara qilinadi". "Komediya insonlarni kuldirishga mo'ljallangan tadbir turi" bo'lib, "odatda oxiri xursandchilik bilan tugaydigan, kulgiga mo'ljallangan asar, film yoki ko'rsatuv sifatida ham talqin etiladi va biror narsaning kulgili ko'rinishi" ma'nosini ham anglatadi. Bu janr taraqqiyotiga – Hamza Hakimzoda Niyoziy "Maysaraning ishi", Abdulla Qahhor "Tobutdan tovush", Sayd Ahmad "Kelinlar qo'zg'oloni", Erkin Vohidov "Oltin devor", Hamid G'ulom "Toshbolta oshiq", Bahrom Rahmonov "Surmaxon", Sharof Boshbekov "Temir xotin" va boshqalar munosib hissa qo'shdilar. O'z o'rnida komediya turli shakllarga ega bo'lib, quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

Yumoristik komediya – Abdulla Qahhor – "Tobutdan tovush" va boshqalar. Yumoristik komediyada yozuvchi turmushdagi va ayrim kishilardagi ba'zi bir kamchiliklardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan obyektning yo'q bo'lib ketishini istamaydi, unga hatto achinadi va undagi kamchiliklarning tuzalishini istaydi.

Satirik komediya – Abdulla Qodiriy – "Toshpo'lat tajang nima deydi?" va boshqalar. Satirik asarda esa ana shu kamchiliklarga nisbatan achchiq kulgi namoyish etiladi. Bu bilan yumor satiradan farq qiladi. Biroq satirada yumor elementi bo'lganidek, yumorda ham satira elementi mavjuddir.

Tragikomediya – Erkin A'zam – "Odam bo'lish qiyin" va boshqalar. Parodiya – "adabiyot va ba'zan musiqada, tasviriy san'atda: biror asarga taqlidan yaratilgan, uning zaif tomonlariga hajviy, kinoyaviy yondashilgan asar; satirik o'xshatma". Parodiya "satirik ijodning bir turi bo'lib, odatda, biror yozuvchi ijodi yoki alohida asarning kulgili yoki nomaqbul tomonlarini ko'rsatuvchi she'riy yoxud nasriy asar" hisoblanadi. Feleton – "kundalik hayotda ro'y beradigan salbiy hodisalarni yoki biror kimsani o'tkir til bilan tanqid qilib, uning ustidan kulib, dolzarb mavzuda yozilgan gazeta yoki jurnal maqolasi; publitsistik janr" va "vaqtli matbuot (asosan gazeta)ning maqola turlaridan biri bo'lib, unda ijtimoiy hayotdagi salbiy hodisalar yoki ayrim kishilardagi bema'ni nuqsonlar hajv qilinadi, fel'eton she'riy, nasriy shaklda, ba'zan dramaga xos dialog shaklida bo'ladi" to'qima, tanqid yoki hazilomuz adabiyot qismiga bag'ishlangan bir qismi deb izoh berilgan.

Muhokama

Feletonning badiiy xususiyatlari deganda, tiniq manzara, quyma tasvirlar, obraz, timsollar, tipik xarakter va sharoit, syujet chizig'i, pishiq kompozitsiya, adabiy til, xalq tili, rang-barang ijod vositalari anglashiladi. Feletonning publitsistik xususiyatlari deyilganda, mantiqiy muhokama, ilmiy tushuncha, o'tkir polemik ruh, publitsistik cho'g', achchiq va nordon kulgi, muallif "men"ining faolligi,



bayonning, tasvir uslubining, sujet, kompozitsiya, konfliktning o'ziga xosligi, monolog va dialogning mo'lligi va hokazolar tushuniladi. Janr tabiati ilmiy tushuncha, amallardan foydalanishni ham taqozo etadi, shu ma'noda feletonni badiiy-ilmiy-publitsistik janr, deb ham atash mumkin.

Epigramma – “kichik hajmli, o'tkir (achchiq) hajviy she'r”; “satirik poeziya turlaridan biri bo'lib, biror kishini hajv qilgan kichikroq she'r”; “qisqa va donolik yoki hazil yo'li bilan biror g'oya yoki his-tuyg'uni ifodalaydigan qisqa she'r yoki gap”; “hajv yoki donolik yo'li bilan biror g'oyani ifodalaydigan qisqa she'r yoki jumla” kabilarni anglatadi.

Hazil-mutoyiba – “o'tkir so'zlik, hozirjavoblik bilan yaratilgan kulgili asar. U satira va yumordan hazilomuzligi, beg'arazligi bilan farq qiladi. Bir-biriga yaqin bo'lgan kishilar, do'stlar o'zaro hazil-mutoyiba qilishadi. Hazil-mutoyiba halq orasida keng tarqalgan askiya va chandishga yaqin turadi”. Demak, hajviy matnlarning yuqorida ta'kidlab o'tilgan turlari asosan biror shaxs yoki guruhning insonlarda turli lingvistik birliklardan foydalanib, kulgi uyg'otish maqsadida yozilgan matnlar sirasiga kiradi. Hajviy matnning bu turiga kengroq to'xtalib o'tamiz. “O'zbek tilining izohli lug'at”ida latifa (a.– nazokat, noziklik; oqilona so'z; anekdot) kulgili voqea-hodisa haqidagi kichik hikoya deb izohlangan. Latifa termini o'rnida ba'zida anekdot termini ishlatilganligi uchun ba'zi manbalardagi anekdot terminining ma'nolariga ham e'tibor qaratdik. Latifalarda ko'pincha podsholar, amir-amaldorlar, boylar va din-shariat peshvolari ustidan kulib, ularning zolimligi, insofsizligi va ma'naviy qashshoqligi fosh etiladi. Aksariat xalq latifalarining qahramoni Afandi (Nasriddin Afandi) bo'lib, u o'zining donoligi, hozirjavobligi, tadbirkorligi, so'zamolligi bilan xalq dushmanlarini sharmandayu sharmisor qilib, ularni yengadi. Latifa, ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llanib, afandi deb ham yuritiladi. Masalan: Afandining yaktagini xotini yuvib, dorga ilib qo'ygan edi. Afandi kechasi uyg'onib, hovliga chiqdi. Dordagi yaktagini o'g'ri gumon qilib, qo'liga kamonini oldi-da, yaktakka qarab o'q uzdi. Ertalab turib qarasa, o'zining yaktagi ekan, xursand bo'lib: – Xayriyat, *yaktakning ichida o'zim yo'q ekanman*, – dedi.

(Afandi latifalaridan)

Latifa haqida ba'zi olimlarimiz mulohazalariga nazar tashlaylik. Bu yerda B.Suvonqulovning tadqiqot ishida keltirilgan N.Osmanovning fikriga e'tiboringizni qaratamiz: “Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida “anekdot” so'zi, albatta, qo'llanilmagan va bu yerda aytilayotgan hikoyalar esa xar xil, ko'pincha arabcha nomlarga ega bo'lishgan. Eng ko'p rasm bo'lgani latifa (ko'p. latoyif) – hazil, askiya; zarifa (ko'p. zaroyif) - nozik fikrli hikoya; nodira (ko'p. navodir va ajiba (ko'p. ajoyib) – noyob, mashhur, g'alati narsa. Satira va paskvil hajv termini bilan atalgan, biroq u ko'pincha nazmiy asarlarga nisbatan qo'llanilgan.

Xulosa

Matnning mohiyati va kommunikatsiya jarayonida bajaradigan vazifasi faqat yozuv bilan chegaralanadigan bolsa, bu yirik kommunikativ birlikning tilda orni qanday belgilanishi haqidagi masala ochiq qoladi. Matn lingvistikasi muammolari bilan jiddiy shug'ullanadigan juda kopchilik tilshunoslar matnning ham og'zaki ham yozma bolaverishi mumkinligini aytadi. Chindan ham shu fikr ilmiy –mantiqiy jihatdan to'la asosga ega va u matnning mavjut mohiyatini tog'ri aks ettiradi. Tilshunosligidagi antropotsentrik tadqiqotlarning muhim xususiyatlaridan biri – an'anaviy hamda sistem-struktur tilshunoslik yutuqlariga tayangan holda yangi bosqichlarga kutarila olganidir. Matn tahliliga antroposentrik nuqtayi nazardan yondashish bugungi tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi. Murakkab va serqirra hodisa hisoblangan matn tadqiqida so'zlovchi – matn – tenglovchi (yozuvchi – matn – o'quvchi) dan iborat uchlik asosiy obyekt bo'lishi lozim. Matn va shaxs omili masalalari hajviy matnni tadqiq etishni kun tartibiga qo'yadi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. Словарь иностранных слов. Гос.издательство иностр.и нац.словарей, Москва, 1955,стр.680
2. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002 й. 61-бет



3. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: филол. фан. н. ди... дисс. – Тошкент, 1994. – 168 б.
4. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили, Тошкент, Ўқитувчи, 1990. – Б. 6-40.
5. Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн синтаксиси. – Фарғона: ФарДУ нашри, 2002. – Б. 4-25.
6. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тош
7. Сувонқулов Б.М. Ўзбек халқ латифаларининг жанр хусусиятлари. Филол. фан. ном.... дисс. автореф. – Т., 2008. – Б. 13.
8. Нурмонов, А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 63.
9. Мулоқот психологияси. – Тошкент, 2003. – Б. 4.
10. Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent. 2020. – B. 99.
11. Тоирова Г. Нуткий мулоқот ситуатив прагматик система сифатида. Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 11.
12. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 184
13. Тоирова Г. Кўрсатилган ўқув луғат. – Тошкент, Академнашр, 2016. – Б
14. <https://jainkwellpublishing.com/index.php/conferences/article/view/882/881>
15. Азнаурова Э. Прагматика художественного слова. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 52.

